



---

## THE IMPACT OF REGULATING WORKING HOURS IN CUSTOMS AUTHORITIES ON THE EFFICIENCY OF BUSINESS ENTITIES' ACTIVITIES

Rustamov Vokhidjon Arashovich

Chief of the Department for Human Development and  
Management of the Customs Committee

e-mail: vrustamov1988@umail.uz

---

### Abstract

This article analyzes the impact of effective regulation of working hours in customs authorities on the efficiency of business entities' activities. In particular, it highlights how the proper organization of working time in customs clearance processes, increased service speed, reduction of excessive bureaucratic delays, and the implementation of modern information and communication technologies contribute to reducing time and cost losses in business activities.

**Keywords:** State bodies, customs posts, daily schedule, working hours, service activity, efficiency, business entities, customs clearance.

### BOJXONA ORGANLARIDA ISH VAQTINI TARTIBGA SOLISHNING TADBIRKORLIK SUB'YETLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Rustamov Voxidjon Arashovich

Bojxona qo'mitasi Inson resurslarini rivojlantirish va  
boshqarish boshqarmasi bosh inspektori, podpolkovnik

e-mail: vrustamov1988@umail.uz

### Annotatsiya:

Mazkur maqolada bojxona organlarida ish vaqtini samarali tartibga solishning tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarida ish vaqtining to'g'ri tashkil etilishi,



xizmat ko'rsatish tezligi, ortiqcha byurokratik kechikishlarning kamaytirilishi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi orqali tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan vaqt va xarajat yo'qotishlari qisqarishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat organlari, bojxona postlari, kun tartibi, ish vaqti, xizmat faoliyati, samaradorlik, tadbirkorlik sub'yektlari, bojxona rasmiylashtiruvi.

**ВЛИЯНИЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ РАБОЧЕГО ВРЕМЕНИ В  
ТАМОЖЕННЫХ ОРГАНАХ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА**

Рустамов Вохиджон Арашович

Главный инспектор Управления по развитию и управлению  
человеческими ресурсами Таможенного комитета

e-mail: vrustamov1988@umail.uz

**Аннотация:**

В данной статье анализируется влияние эффективного регулирования рабочего времени в таможенных органах на повышение эффективности деятельности субъектов предпринимательства. В частности, раскрывается, каким образом правильная организация рабочего времени в процессах таможенного оформления, повышение скорости обслуживания, сокращение избыточных бюрократических задержек, а также внедрение современных информационно-коммуникационных технологий способствуют уменьшению временных и финансовых потерь в предпринимательской деятельности.

**Ключевые слова:** государственные органы, таможенные посты, распорядок дня, рабочее время, служебная деятельность, эффективность, субъекты предпринимательства, таможенное оформление.



## **Kirish**

Bugungi kunda iqtisodiyotning globallasuvi va tashqi savdo hajmlarining ortib borishi sharoitida bojxona organlari faoliyatining samaradorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bojxona operatsiyalarini amalga oshirishda ish vaqtini to'g'ri va samarali tashkil etish tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki, bojxona rasmiylashtiruv jarayonlaridagi har qanday kechikishlar tovarlarni yetkazib berish muddatiga, logistika va tovarlarni saqlash xarajatlariga hamda umumiy biznes jarayonlarining uzluksizligiga salbiy ta'sir etadi.

Zamonaviy sharoitda tadbirkorlik sub'yektlari uchun vaqt eng muhim resurslardan biri hisoblanadi. Shu bois, bojxona organlarida ish vaqtini samarali boshqarish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini tezlashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy elektron deklaratsiyalash tizimlaridan keng foydalanish va xizmat ko'rsatish vaqtini moslashuvchan tashkil etish orqali bojxona tizimi samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi bojxona organlarida ish vaqtini tartibga solishning tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot davomida bojxona organlarida ish vaqtini optimallashtirish tadbirkorlik sub'yektlari uchun logistika jarayonlarini tezlashtirishi, tovar aylanishini jadallashtirishi va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada ilg'or xorijiy tajribalar hamda milliy amaliyot tahlili asosida ish vaqtini moslashuvchan tashkil etish, elektron deklaratsiyalash tizimlarini kengaytirish va xizmat ko'rsatish rejimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Natijada, bojxona organlarida ish vaqtini oqilona boshqarish nafaqat davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirishi, balki tadbirkorlik muhitini yaxshilash, eksport-import operatsiyalarini rivojlantirish va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.



### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Bojxona organlarida ish vaqtini tartibga solish va uning tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati samaradorligiga ta'siri masalasi iqtisodiyot, boshqaruv va logistika yo'nalishlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, bojxona tizimida vaqt omili tashqi savdo operatsiyalarining tezligi va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki va Jahon bojxona tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bojxona jarayonlarini soddalashtirish, rasmiylashtirish vaqtini qisqartirish hamda "yagona darcha" tamoyilini joriy etish tadbirkorlik muhitini yaxshilashda muhim omil sifatida e'tirof etilgan.

Jahon bankining "Doing Business" hisobotlariga ko'ra, bojxona rasmiylashtiruvini uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirish biznes yuritish qulayligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, ayrim rivojlangan davlatlarda eksport operatsiyalarini rasmiylashtirish o'rtacha 1-2 kunni tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 3-7 kungacha yetadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rasmiylashtirish vaqtining har bir kuniga qisqarishi tashqi savdo hajmining o'rtacha 1-2 foizga oshishiga olib keladi.

Jahon bojxona tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bojxona jarayonlarida "yagona darcha" (Single Window) tizimini joriy etish natijasida hujjatlarni ko'rib chiqish va rasmiylashtirish vaqti 30-50 foizgacha qisqargan. Shu bilan birga, elektron deklaratsiya tizimlari joriy etilgan davlatlarda bojxona operatsiyalarining

80-90 foizi avtomatlashtirilgan tartibda amalga oshirilmoqda, bu esa inson omili bilan bog'liq kechikishlarni sezilarli darajada kamaytirgan.

Logistika samaradorligi indeksleri (LPI) tahliliga ko'ra, bojxona jarayonlari tezkor tashkil etilgan davlatlarda tovarlarni yetkazib berish muddati o'rtacha 20-30 foizga qisqargan. Xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini ko'pincha 24 soat ichida yakunlanadi, ayrim hollarda esa bir necha soat ichida amalga oshiriladi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham bojxona organlari faoliyatini takomillashtirish, xususan ish vaqtini samarali tashkil etish masalalari alohida o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida bojxona xizmatlarining tezkorligi



va shaffofligi tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda bojxona jarayonlaridagi ortiqcha vaqt sarfi logistika zanjirida uzilishlarga, qo'shimcha xarajatlarga va biznes faoliyatining sekinlashishiga olib kelishi ta'kidlangan.

Biroq, o'tkazilgan tadqiqotlarda bojxona organlarining ish vaqtini aniq qanday shaklda belgilash xizmat samaradorligi va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga olib kelishi yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

Shundan kelib chiqib, muallifning ilmiy asoslangan takliflari asosida O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-122-son qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomning 209-bandi bilan bojxona organlaridagi xizmat faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda vakolatli boshliqlar tomonidan kun tartibi ishlab chiqilishi belgilandi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar asosida alohida yuridik shaxs hisoblangan bojxona organlari tarkibiy tuzilmalari boshliqlari tomonidan buyruqlar qabul qilinib, kun tartiblari tasdiqlangan va ular asosida barcha tuzilmalar, jumladan bojxona postlari ish faoliyatini yo'lga qo'yib kelmoqda.

### **Tahlil va natijalar**

Bojxona organlarida ish vaqtini tartibga solishning tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, vaqt omili tashqi savdo jarayonlarining uzluksizligi va iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarining ish vaqti bilan cheklanishi (masalan, faqat ish kunlari va belgilangan soatlarda faoliyat yuritish) transport vositalarining ortiqcha kutishiga olib keladi. Natijada, logistika zanjirida uzilishlar yuzaga kelib, tovarlarning yetkazib

berilish muddati uzayadi. Bu esa tadbirkorlar uchun qo'shimcha xarajatlar



(saqlash, transport, jarimalar)ni keltirib chiqaradi hamda ularning bozordagi raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Xususan, bojxona yuk deklaratsiyalarining axborot tizimiga kelib tushishi, qayta ishlanishi muddatlari va hajmlari tahliliga asosan, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tovarlarni rasmiylashtiruvdan o'tkazish uchun asosan soat 10:00 dan keyin murojaat qiladi.

Qonunchilik hujjatlariga asosan bojxona postlarining ish tartibi besh kunlik ish haftasida sakkiz soatdan jami 40 soat etib belgilangan, xususan, masofaviy elektron deklaratsiyalash bojxona postlari dushanba-juma kunlari 09:00 dan 18:00 gacha faoliyat ko'rsatgan.


Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi 700-son qarori bilan bojxona organlarining ish vaqtdan tashqari vaqtdagi bojxona rasmiylashtiruvi va ko'rigi uchun BHMning 2 baravari qiymatida yig'im belgilanganligi sababli, shanba va yakshanba kunlari tadbirkorlar tomonidan murojaatlar soni kamligi kuzatiladi. Ushbu yo'nalishda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganilganda, Gruziya bojxona tajribasida 35-40 foiz yuklar chegaraning o'zida rasmiylashtirilayotganligi, bojxona boji stavkalari optimallashtirilib, notarif choralar keskin soddalashtirilganligi, bojxona rasmiylashtiruvi uchun talab qilinadigan hujjatlar soni 54 tadan 2 taga tushirilganligi, bojxona postlarida xizmat qilayotgan xodimlar soni va ularning ish rejimi juda optimal holatga keltirilganligi, tovarlar rasmiylashtiruvi olti kunlik ish rejimida, ya'ni dushanba-shanba kunlari amalga oshirilishi aniqlangan.

Tahlillarga ko'ra, bir oyda mamlakatimizning Masofaviy elektron deklaratsiyalash bojxona postlarida jami 79 220 ta bojxona yuk deklaratsiyalari rasmiylashtirilgan bo'lib, shundan:

5585 tasi (7,0 %) haftaning dushanba-juma kunlari soat 09:00 dan 10:00 gacha;

4864 tasi (6,1 %) haftaning shanba kunlari;

qolgan deklaratsiyalar haftaning dushanba-juma kunlari 10:00 dan 18:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida rasmiylashtirilgan (1-rasm).



**1-rasm. Rasmiylashtirilgan deklaratsiyalar soni.**

Yillik tovarlar rasmiylashtiruvining 3 foizi haftaning shanba kunlariga to'g'ri kelib, ish vaqtdan tashqari vaqtda rasmiylashtirganlik uchun har oyda 1,2 mlrd so'm yig'im undirilgan va mazkur yig'im yillik o'rtacha 14,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

Shundan kelib chiqib, sohada aniqlanayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish, tadbirkorlarga qulay sharoitlar yaratish hamda ularning xarajatlarini kamaytirish maqsadida bevosita muallifning ilmiy asoslangan takliflari asosida masofaviy elektron dekratsiyalash bojxona postlari ish vaqtini dushanba-juma kunlari 10:00 dan 18:00 gacha, shanba kuni 10:00 dan 16:00 gacha etib belgilash yuzasidan Bojxona qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taklif kiritilgan.

Davlat rahbari tomonidan mazkur taklifga rozilik berilib, tashqi savdo faoliyatida yanada qulayliklar yaratish maqsadida masofaviy elektron dekratsiyalash bojxona postlari ish vaqtini soddalashtirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish toshirilgan.

Topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 24-oktabrdagi 560-son qarori bilan Hukumatning 2020-yil 9-noyabrdagi



“Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 700-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritilgan.

Mazkur qarorga asosan bojxona rasmiylashtiruvini, shuningdek, bojxona organi xodimi tomonidan bojxona ko‘rigini, bojxona nazorati ostidagi tovarlarni deklarant tomonidan ko‘zdan kechiruvni, yuk operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlarni bajarganligi uchun yig‘im belgilashda bojxona organlari ish vaqti va ish vaqtidan tashqari vaqtlarini aniqlash soddalashtirildi.

Shuningdek, bojxona organlarining boshliqlari tomonidan tasdiqlangan kun tartibiga muvofiq ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona yuk deklaratsiyalari rasmiylashtirganligi bojxona yuk deklaratsiyasining “D” grafasiga bojxona organi tomonidan belgi qo‘yilgan vaqt orqali aniqlanishi, bunda tadbirkorlik subyektlarining bojxona rasmiylashtiruvini ish vaqtidan tashqari vaqtda rasmiylashtirish uchun roziligi olinishi lozimligi belgilandi.

Bundan tashqari, qabul qilingan buyruqlar asosida masofaviy elektron deklaratsiyalash bojxona postlarining ish tartibi 2024-yil 1-yanvardan boshlab dushanba-juma kunlari 10:00 dan 18:00 gacha, shanba kuni 10:00dan 16:00 gacha etib belgilandi.

Bojxona organlarining ish tartibiga yuqoridagi o‘zgartirishlarni kiritish orqali tadbirkorlik subyektlarining yillik o‘rtacha 15 mlrd so‘m mablag‘lari iqtisod qilinishiga erishildi.

Ma‘lumot uchun: qonunchilikka kiritilgan mazkur o‘zgartirish bugungi kunda amalda bo‘lgan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi “Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 55-son qarorida ham o‘z aksini topgan.

Kiritilgan ushbu o‘zgartirishlar tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Avvalo, rasmiylashtirish jarayonlarining soddalashtirilishi va raqamlashtirilishi orqali ortiqcha byurokratik to‘siqlar qisqartirildi. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun vaqt sarfini kamaytirib, tovarlarni tezkor aylanishiga xizmat qildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yangi tartiblar joriy etilishi natijasida:

bojxona rasmiylashtiruvi uchun ketadigan o‘rtacha vaqt qisqardi;

tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining vaqt va xarajatlari sarfi qisqardi;

inson omili bilan bog‘liq xatolar kamaydi;



dasturiy ta'minotlarga kelib tushayotgan yuklamalar va xodimlarning ish yuklamasi maqbullashtirildi.

Iqtisodiy jihatdan eng muhim natija sifatida, tadbirkorlik subyektlarining mablag'larini tejashga erishilganini alohida qayd etish mumkin. Ushbu mablag'lar asosan logistika, tovarlarni saqlash xarajatlari, ortiqcha to'lovlar va vaqt yo'qotilishi bilan bog'liq xarajatlarning kamayishi hisobiga shakllandi. Bu esa korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ularning investitsion imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, mazkur o'zgarishlar biznes muhitini yaxshilash, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish va tashqi savdo aylanmasini ko'paytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada, bojxona tizimining shaffofligi va samaradorligi oshdi, bu esa davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ishonchni mustahkamladi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan islohotlar nafaqat moliyaviy tejamkorlikni ta'minladi, balki tadbirkorlik faoliyatini yanada erkin va samarali yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berdi.

### **Xulosa va takliflar**

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bojxona organlarining ish tartibiga kiritilgan o'zgartirishlar tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, bojxona tizimida shaffoflikning oshishi, xodimlar ish yuklamasining maqbullashtirilishi va xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanishi biznes muhitining yanada barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

Mavjud natijalarni yanada mustahkamlash va tizim samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

bojxona jarayonlarini to'liq raqamlashtirishni davom ettirish va barcha xizmatlarni yagona elektron platformaga integratsiya qilish;

bojxona postlarida xizmat qilayotgan xodimlar soni va ularning ish rejimini optimallashtirish, xususan, tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postlarining ish tartibini qayta ko'rib chiqib, o'zgartirishlar kiritish;



bojxona boji stavkalarini optimallashtirib, notarif choralarni soddalashtirish, bojxona rasmiylashtiruvi uchun talab qilinadigan hujjatlar sonini keskin qisqartirish;

“Yagona darcha” tamoyilini kengaytirish orqali tadbirkorlar uchun hujjat topshirish jarayonlarini yanada soddalashtirish;

tadbirkorlar bilan muloqot mexanizmlarini kuchaytirish, ularning fikr va takliflari asosida tizimni doimiy ravishda takomillashtirib borish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali bojxona tizimi samaradorligini yanada oshirish, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini yuksaltirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 10-oktabrdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-502-son Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-122-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritilgan axborot xati va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2022-yil 9-noyabrdagi 06-1-2863-sonli xati.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi “Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 700-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 24-oktabrdagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 560-son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi “Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 55-son qarori.



*Modern American Journal of Social Sciences  
and Humanities*

**ISSN (E):** 3067-8153

Volume 2, Issue 4, April, 2026

**Website:** usajournals.org

*This work is Licensed under CC BY 4.0 a Creative Commons Attribution  
4.0 International License.*

- 
8. [www.wcoomd.org/](http://www.wcoomd.org/) (Jahon bojxona tashkiloti rasmiy veb sayti).
  9. [www.customs.uz/uz](http://www.customs.uz/uz) (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi rasmiy veb sayti).
  10. Bojxona qo‘mitasining statistik ma’lumotlari.